

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

TA'LIM TIZIMIDA YANGI PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR

Yuldasheva Gulbahor Ibragimovna

FarDU, dotsent

Olimjonova Dildoraxon

FarDU, talaba

Annotatsiya. Ma'lumki, gumanitar ta'lism barcha bilim sohalari talabalariga eng katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Gumanitar fanlar shaxsiy madaniyat rivojiga hal qiluvchi hissa qo'shadi va ta'lism dasturlarining muhim qismini tashkil etuvchi gumanitar fanlar uni shakllantirishga imkon beradi. Maqolada ushbu sohani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ish, metod, o'qitish, texnologiya, samaradorlik.

KIRISH

Hozirgi zamonda globallashuv, integratsiya, kompyuterlashtirish, Internet, ommaviy axborot vositalarini joriy etish va ulardan foydalanish, masofaviy, shaxsga yo'naltirilgan ta'lism jarayonlari ta'siri ostida ta'lism va tarbiya nazariyasi va amaliyotiga yondashuvlar sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bularning barchasi innovatsion ta'lism texnologiyalaridan foydalanishga olib keladi. Bugungi kun oliy talim pedagogining jamiyatdagi masuliyati juda muhimdir. Shu vazifani amalga oshirishda pedagogik kadrlar salohiyatini rivojlantirishda, rivojlangan davlatlar bilan tajriba almashgan holda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu sohaning taraqqiyoti moddiy-texnik bazalar bilan taminlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Ta'lism sohasida asosiy vositalardan biri bu didaktik ta'minotlardir. Didaktik ta'minotga o'quv materialining o'zgargan shakllari - slayd, diagramma, jadval, test, virtual laboratoriya va boshqalar kiradi. Bunday ta'minotlarni yaratishda kompyuterdan foydalanishning imkoniyati keng va kelgusida bu ta'minotni o'zgartirib, takomillashtirib borish ham mumkin. Bundan tashqari masofadan ta'lism olish, mustaqil o'rganish kabi imkoniyatlarni ham yaratib beradi.

Gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaralidir. Pedagogik texnologiyalarning ahamiyati – bu pedagog va talabalarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijalarga erishishlariga qaratilgan. Bunday innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratish uchun bir qator muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Zamonaviy pedagogikaning samaradorligini oshirish, ta'lismni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash, turli modellardan foydalanish, ta'lism olish va rivojlantirishning axborot

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan muhitni yaratish kabi innovatsion uslublarni tatbiq etish ijtimoiy-gumanitar fanlarining rivojlanish istiqbollaridan bo'lib kelmoqda.

Ta'lism berishning optimal variantlarini tanlash, yuqori sifat samaradorligiga erishish, bilim saviyasini oshirish zamon talabiga mos mutaxassislar tayyorlash kabi bir qator muammolarni hal qilishi bilan o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari tajribasiga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimining takomillashtirilishi bevosita mavjud axborotlarning sifati va saviyasiga bog'liqdir. Multimedia texnologiyalarini joriy qilish hamda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib-axborot madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lism sohasida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismlaridan biri aynan axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdir. Oliy ta'lism muassasalari talabalariga axborot sohasida bilimlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratib berish va ularning sifatini oshirish borasida professor – o'qituvchilarning shu sohadagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Oliy ta'limga har bir professor – o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarini bilish va talabalarga ma'lumot berib borishi zarurdir va o'z navbatida aynan shu yo'nalishda axborotlashgan zamonaviy o'qitish vositalari - elektron darsliklar, virtual stend, masofaviy o'qitishlar orqali axborot almashinuvining afzalligi bo'yicha ham ko'rsatmalar berib borishi maqsadga muvofiqdir[1].

Talim jarayonida "axborot madaniyati" quyidagi mezonlar asosida shakllanib boradi:

- o'z kasbiy faoliyatiga tegishli axborotlarni olish, uni qayta ishslash va foydalanish metodlari va usullarini o'zlashtirishi;
- atrof olamdagagi axborot jarayonlari haqida bilimlar va tasavvurlarni aks ettiruvchi o'qituvchining pedagogik mahoratini takomillashtiruvchi sifatlar yig'indisi, axborot vositalariga ega bo'lishi;
- axborot madaniyati bilan bog'liq ahloqiy-etik va kasbiy mahorat meyorlari tizimini o'zlashtirish, shuningdek, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi;

Bugungi kun ta'limga tizimida kompyuterda masofaviy va elektron modulli o'qitish, maruza o'qish (slaydlar, videoroliklar, animatsion tasvirlar) professor - o'qituvchi uchun samarali, yordamchi vosita hisoblanadi. Ta'limga maqsadi ijodiy va tanqidiy fikrleshni, o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyati tajribasi va vositalarini, rolli o'yin va simulyatsiya modellashtirishni maqsadli shakllantirish asosida talabalarning yangi tajribalarni o'rganish imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan o'quv jarayoniga innovatsion yondashuv"[2].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, talabalarni o'qitishni pedagogik innovatsiyalar va axborot kommunikatsion texnologiyalarisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Bugungi kun zamonaviy ta'limga ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborot resurslaridan professor-o'qituvchi ham, talaba ham darsda va darsdan tashqari faoliyatida foydalanish imkoniyatiga

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

ega, izlash tizimlari, elektron darsliklar, elektron topshiriqlar, testlar, viktorinalardan unumli foydalanish orqali zamonaviy pedagogikada yuqori natijalarga erishilmoqda. Eski axborot o‘rnini yangi axborot egallab, o‘qituvchi u bilan barobar holda uzlusiz ta’lim olishi, mustaqil va maxsus tashkil qilingan faoliyatda ijod qilishi dolzARB va istiqbolli rivojlanish vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ta’lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari / Ed. E.S. Po‘lat. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2019 yil
2. Lapkin M.M. O'quv faoliyatini rag'batlantirish va talabalarning oliy o'quv yurtlarida o'qish muvaffaqiyati / M.M. Lapkin, N.V. Yakovleva // Psixologik jurnal. 2016. -№. 17. - B. 134-140.
3. To‘raqulova X.A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: muammolar va yechimlar. “Talim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar”. T.:2013.
4. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU. 2013. 175-
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahoratlar. ”Iqtisod-moliya”. T.: 2011.
6. Yuldasheva, G. (2023). Ta’limda axborot texnologiyalari. 1-qism. Darslik. – Farg‘ona-307b
7. Yuldasheva, G., V. Sharopova . “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarida AKT dan foydalanishning ahamiyati. International Journal of Scientific Researchhs. Volume 5, ISSUE 2. 2024-yil. 292-293b.
8. Yuldasheva, G., N.Teshaboyeva. Ijtimoiy ish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Gospodarka i Innowacje. Volume 47. 2024-yil. 304-307 b.
9. Yuldasheva G., D. A’zamxujayeva. Ijtimoiy ishda boshqaruв hujjalarni elektronlashtirish. Международная конференция академических наук. 2024-yil. 200-203 b